



NUTQ KAMCHILIKLARINING TURLARI VA ULARNI BARTARAF ETISHDA KARREKSION PEDAGOGIK ISHLAR

Ahmedova Maftuna Ilyosbek qizi

Surdopedagogika 1-bosqich 102-guruh talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15348072>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-May 2025 yil
Ma'qullandi: 04-May 2025 yil
Nashr qilindi: 06-May 2025 yil

KEYWORDS

dislaliya, rinolaliya, mexanik dislaliya, funksional dislaliya, dizartriya, alaliya, afaziya, dudug'lanish, disleksiya, nutq, logopediya, korreksiya, logopedik o'yinlar..

ABSTRACT

Ushbu maqolada nutq buzilishlari-dizartiriya, dislaliya, alaliya, afaziya, rinolaliya, disleksiya, dudug'lanish kabi turlarga ajratilib, har birining xususiyatlari va yuzaga kelish omillari tahlil qilingan. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etishda maxsus mashqlar, logopedik mashg'ulotlar, individual yondashuvlar, o'yin shaklidagi metodlar samaradorligi ko'rsatib berilgan. Shu bilan bir qatorda ularning o'ziga qolmay pedagog va logopedlarning o'zaro hamkorligi, ota-onalar bilan ishlashning ahamiyati ham alohida ta'kidlangan..

Bizning mamlakatimizda turli xil nutq kamchiliklariga ega bo'lgan shaxslarga ko'rsatiladigan har tomonlama sistematik yordam rivojlanib bormoqda. Defektologiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlar orqali nuqsonni erta aniqlash va uni oldinroq tuzatish katta katta ahamiyatga ega ekanligi isbotlab berilgan.

Logopediya termini grekcha logos (so'z, nutq), peydeo (tarbiyaiyman, o'qitaman) so'zlaridan lashkil topgan bo'lib, tarjimada lo'g'ri "nutqni tarbiyalash" ma'nosini anglatadi. Fan sifatida logopediya nutq nuqsonini tuzatish, nutqiy faoiyati zaiflashgan shaxslarni o'qitish va tarbiyalash jarayoni hisoblanadi.

Nutq-tilning fikr ifodalashi va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli. Nutq deganda uning og'zaki va yozma ravishda namoyon bo'lishdagi jarayonlar, ya'ni so'zlash jarayoni va uning uning natijasi tushunladi.

Nutq kamchiliklari o'z navbatida shularni o'z ichiga oladi:

Dislaliya termini grekcha so'zdan olingan bo'lib, (dis-buzilish, lalia-nutq) degan ma'noni anglatadi. Dislaliya nutq buzilishlari orasida eng ko'p tarqalgan kamchilikdir. Dislaliya o'z navbatida 2 ga bo'linadi:

1. Mexanik dislaliya
2. Funksional dslaliya

Talafuzdagi kamchiliklarni bartaraf etish muddati bir qancha faktorlarga bog'liq: nuqsonning murakkablik darajasiga, bolaning yosh va individual xususiyatiga, mashg'ulotning muntazamligiga, ota-onalar tomonidan beriladigan yordamga. Oddiy dislaliyada mashg'ulotlar bir oydan uch oygacha, murakkab dislaliyada esa uch oydan olti oygacha o'tkaziladi. Maktab yoshidagi bolalarga qaraganda, bog'cha yoshidagi bolalar talafuzidagi nuqsonlar qisqa

muddat ichida bartaraf etiladi, katta maktab yoshidagi bolalarga qaraganda esa kichik maktab yoshidagi bolalarda tezroq bartaraf etiladi.

Rinolaliya-nutqning prosodiya tomoni va tovush chiqarishdagi buzilishlar, birinchi navbatda – alveolyar o'simta, milk, qattiq va yumshoq tanglay, labdagi yoriq (nezarasheniya) ko'rinishidagi ovozlari, artikulyatsiya apparatining qurilishi buzilishini keltirib chiqaradi. Tovush chiqarganda havo oqimi faqat og'iz orqali emas, balki burun bo'shlig'i orqali ochiq o'tishi va yopiq, burun bo'shlig'idagi me'yoriy o'tishning adenoidlar, o'simtalar, burun suyagining qiyshiqligi, burunda surunkali jarayonlar oqibatida buzilishlarning ko'rinishi mumkin.

Dizartiriya-markaziy nerv sistemasining organik shikastlanishi oqibatida tilning tovush tizimini buzilishi (tovush chiqarish, prosodiya, ovozlari). Dizartiriya, ko'pincha talaffuz qilishning buzilishi bilan chegaralanmaydi, lekin nutqni tushunish va leksik-grammatik tomonlariga tegishli bo'ladi.

Alaliya-bola rivojlanishining bachadonda homila yoki ilk davrida bosh miya po'stlog'ining nutq zonasida organik shikastlanish oqibatida nutqning yo'qligi yoki rivojlanmaganligi (nutq shakllanishiga qadar). Motorli alaliyada murojaat qilingan nutqni qiyosiy saqlangan imkoniyatda tushunish uchun qiyinchiliklar shaxsiy nutqning rivojlanishiga tegishli bo'ladi. Sensorli alaliyada buning teskarisi kuzatiladi: u yoki bu darajada, atrofdagilarning nutqini tushunish buziladi.

Afaziya- bosh miyaning og'ir jarohatlanishi tufayli, shamollash jarayonlari va o'simtalar tufayli nutq zonalarini qamrab oluvchi ilgari bo'lgan nutqni to'la yoki qisman yo'qotish. Afaziya mexanizmi asosida nutq stereotipining yo'qolishi yotadi, shunga ko'ra talaffuz qilish ko'nikmalari yoki begona nutqni tushunish imkoniyatlari yo'qoladi.

Dudug'lanish-bu nutq apparati muskullarining tortishish natijasida nutqning sur'at-ohongining buzilishidir. Qadimgi davrlarda dudug'lanishni ko'proq bosh miyada namlikning to'planib qolishi yoki artikulyatsion apparat qisimlarining o'zaro noto'ri munosabati bilan bog'liq holdagi kasallik deb qarashgan.

Dudug'lanish paytida nutq apparatining markaziy yoki periferik bo'limlarida buzilish bo'lishi mumkinligini Galen, Sels, va Ibn Sino e'tirof etdilar.

Disleksiya - kelib chiqishi nevrologik asosga ega bo'lgan o'ziga xos o'rganishga uquvsizlik. So'zni to'g'ri yoki ravon tanib olishda qiyinchilikka uchrash, o'qish va yozishdagi qobiliyatsizlik bilan tavsiflanadi. Bu qiyinchiliklar tilning fonologik tarkibiy qismlarining to'liqsizligi bilan bog'liq. Ular boshqa kognitiv qobiliyatlar va to'liq o'quv sharoitlari mavjudligiga qaramay saqlanib qoladi. Ikkilamchi oqibatlar sifatida o'qib tushunish bilan bog'liq muammolar yuzaga keladi, o'z navbatida, yomon o'qish texnikasi so'z boyligining o'sishiga, bu esa umumiy holatda ta'lim olishga to'sqinlik qiladi.

¹Nutq kamchiliklarini oldini olish muammosi haqidagi gapirganda bola nutqining normadan rivojlanishi uchun zaruriy omillarni o'rganish va bilish juda muhimdir. Bu ma'lumotlar bola nerv psixik holatining muhim ko'rsatkichi hisoblanuvchi nutuq rivojlanishiga bevosita taalluqlidir. Uning vazifasi asosan nutq ontogenezining yosh bosqichlarini o'rganish va ijtimoiy shartsharoitlarni aniqlashdan iboratdir. Bu ishlar logoped, defektolog, psixolog va pedagoglar tomonidan tashkil etiladi hamda bolalarning

nutqini to'g'rilash,ularni ijtimoiy moslashuvi va intellectual rivojiga ko'maklashishga qaratilgan.Unda individual darslar,kichik guruhli mashg'ulotlar,o'yin orqali o'qitish,logopedik ritmika,nutqiy terapiya mashg'ulotalari o'tkaziladi.

Logopedik o'yinlar maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan olib boriladi.Logopedik o'yinlarni tashkil etish va o'tkazishda logoped turli nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning qobiliyatlarini e'tiborga olishi lozim.

Alalik bolalarda,o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan o'yin mazmuni maqsadga yo'naltirilgan harakatni bildirmaydi.O'yin ularda bir xil mazmuni va taqlidni aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda,har bir turdagi nutq nuqsoni individual yondashuvni talab qiladi.Shu bois,korreksion pedagogik ishlar-logopedik mashg'ulotlar, maxsus metodikalar, o'yin usullar va ota-onalar bilan hamkorlik asosida amalga oshiriladi.O'z vaqtida va to'g'ri tashkil etilgan korreksion ishlar nafaqat nutqni tiklaydi,balki bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M.Y.Ayupova. Logopediya .O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi.-T.:O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2019-yil
2. Islomova, O. (2021). UMUMTA'LIM MAKTABLARI QOSHIDAGI LOGOPEDIYA SHAXOBCHALARI ISHINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA PEDAGOGIK TAVSIYALAR. Majidov. " Nevropatologiya " . - T., 1986.
3. Logopediya (L. Mo'minova, M. Ayupova). - T., 1993.
4. " Logopediya (K. S. Volkova tahriri ostida). - M., 1989.
5. Shomaxmudova R. Sh. Mo'minova L. Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish. - T., 1994.
6. Mo'minova L. R. Tutilib gapiruvchi o'smirlar uchun qo'llanma. " O'qituvchi " . - T., 1980.